

MEDIA MULOQOTNING TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Tojaliyev Akmaljon Mo`minjon o`g`li

Farg`ona davlat universiteti lingvistika(ingliz tili) yo`nalishi magistranti

akmaljonfranka@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola media muloqotga aloqador bo`lgan terminlarning dolzarb muammolarining har tomonlama tahlil qilishga bag`ishlangan.Bugungi kunda yangidan yangi termin va atamalarning kirib kelishi ularni mukammal o`rganishni taqazo etmoqda.

Kalit so‘zlar: termin, media, leksikografiya.

Har qanday jamiyatning bugungi kuni va ertasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri, shubhasiz-ilm fandir. Bizning ona diyorimiz qadim-qadimdan insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo`shgan, dunyo ilm-fani va madaniyatini ma`lum bir bosqichga chiqishiga yordam bergen buyuk mutaffakkirlar va olimlar bilan nom qozongan. Bugungi kunda ham yosh O`zbekistonlik olimlar ham buyuk ajdodlarga munosib izdosh bo`lish maqsadida yurtimizning gullab yashnashi va ilm-fanni yangi cho`qqiga olib chiqish borasida keng ko`lamli ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Va bu, hech shubhasiz, kelajakda bir kun kelib bu xarakatlar o`z mevasini beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ilm-fan rivoji uchun katta e`tibor qaratmoqda. Prezidentimiz ilm-fan haqida shunday fikr bildirganlar ”Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g`oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo`q. Faqat ilm va ma`rifat, intellectual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O`zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.”

“Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug`at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o`zbekcha muqobilini

yaratish, ularning bir xil qo'llanilishini ta'minlash dolzarb vazifa”³⁰. Mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar ona tilimizda o'z lisoniy ifodasini topyapti. Misol uchun yurtimizda mediaga keng yo'l ochib berilmoqda. Natijada bizning ona tilimizga yangidan-yangi terminlar kirib kela boshladi. Bugungi kunda ushbu terminlarni har tomonlama tadqiq qilish eng dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur terminologik sistemaga mansub birliklarning o'rtasidagi semantik munosabatlari, terminlarning leksikografik xususiyatlarini aniqlash, terminlarni ma'lum bir guruhga solish muammolarini maxsus o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Terminlar til lug'at boyligining zamonaviy qatlamiga xos, vazifasi va iste'moliga ko'ra ilmiy-texnik uslub tili va nutqiga xos so'zlar hamda so'z birikmalari bo'lib, avvalo, nominativlik xususiyati bilan ajralib turadi. Ma'lumki, tilning lug'at boyligi doim o'zgarishda. Zamonga nisbatan ijtimoiy tuzum, fan, texnika va madaniyatning o'sib, rivojlanib borishi leksikada aks etganidek, sohalar va ularning terminologiyasining o'zgarib turishida ham o'z ifodasini topadi: terminlar ham eskirishi va yangilanishi, o'zaro sinonim va variantli bo'lishi, terminlararo omonimiya va giponimiya munosabatlari mavjud bo'lishi ham mumkin. Bu munosabatlар asosan matn, xususan, gap doirasida yaqqol namoyon bo'ladi.³¹ Terminlarining shakllanishi va rivojlanishi so'z san'ati va adabiy tilning taraqqiyoti bilan uzviy bogliq jarayon hisoblanadi. Har qanday sohaga oid lug`atlarni tuzishdan asosiy maqsad kundalik duch kelinadigan terminlarni izohlash emas balkim tushunilishi qiyin bo'lgan va kamdan kam duch kelinadigan terminlarga mukammal ta'rif berishdir. Terminlar har bir tilning so'z boyligini juda katta qismini tashkil etadi. Uning juda tez suratlarda rivojlanishi ham albatta bejiz emas, chunki u yangi so'zlar yasash imkonini beradi. Har qanday tilning terminologiyasi ko'p terminlar tizimidan tashkil topgan.

³⁰ «Ўзбекистон Республикаси давлат тили ҳақида»ги Қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989.

³¹ Ўзбек тили лексикологияси – Т., “Фан”, 1981

Madaniyat,san`at,iqtisod yoki ta`limning biror maxsus sohasidagi biror so‘z yoki so‘z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so‘zning mazmuni izohlash orqali talqin qilinadi.

Media bu- odamlar o`rtasida aloqa jarayonini amalga oshirishga yordam beradigan vositalardan biri hisoblandi..Media sohasida lug`atlarni terminlarni tanlashda bir nechta me`zonlarni inobatga olish zarur.Masalan lug`atning maqsadga qay darajada bog`liqligi,tanlangan mavzuga mos kelishi va vazifasi qay darajada mos kelganligini bilishni taqazo etadi.Medianing juda jadal rivojlnishi va hayotimizning turli sohalarida faol qo`llanilishi natijasida,jamiyatning turli vakillari tomonidan ma`lum bir tushuncha har xil terminlar,shakllar bilan qo`llanilishiga olib keldi.Bu o`z navbatida bu sohada sinonimya munosabatini keng ko`lamda yoyilishiga sabab bo`ldi.Media muloqot terminiga oid so`zlarni tanlab olishda bir nechta omillarga alohida e`tibor qaratish zarur: takrorlanish,mavzuni to`laqonli tushunishga yordam beradigan kontekstual terminlar va ularning amaliy ahamiyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.«Ўзбекистон Республикаси давлат тили хақида»ги Қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989.
2. Ўзбек тили лексикологияси – Т., “Фан”, 1981
- 3.Leksikograficheskiy sbornik, vip. 1 — 6, M., 1957-1963; Sherba L. V., Opit obshey teorii leksikografii. V yego kn.: Yazikovaya sistema i rechevaya deyatelnost, L., 1974; Ojegov SI., Leksikologiya, Leksikografiya. Kultura rechi, M., 1974; Yuldashev A. A., Prinsipi sostavleniya tyurksko-russkix slovarey, M., 1972. Abduvahob Madvaliyev.